

Til qoidalari (risola)

Bir ikki soʻz

Jumhuriyatimizning turli sohalarida sarkotiblar buxgʻoltirlar kabi idora ishchilari yetishdirish tilagi ilo qisqa muddatli qurslar ochildi va ochilmoqdadir.

Bu qurslarda oʻqulodurgʻon darslarning prugʻromlari qursning talabiga muvofiq suvratda tuzulub fanlarning idora ishchilari uchun zarur boʻlgʻon nuqtalarigʻina oʻqulushlari lozimdir. Masalan ona tili oʻqutilar ekan, butun sharq qoidalarin oʻqushning aslo keragi yoʻq bu, maktab ishidir. Qurs muddati gʻoyatda qisqa shu qisqa muddat ichida til qoidalarining bilinishi kerak boʻlgʻon eng muhim nuqtalari qoysi, shuni bildirish kerkdir.

Chunki bu qurslar yuqori maktablarga talaba tayyorlash uchun emas, xukumat idoralariga ishchilar tayyorlash uchun ochilgʻondirlar. Bitirub chiqqon qursantlar shahar va qishloqlardagʻi xukumat idorlarida ishlaydirlar. Mana shuni koʻz oldida tutish lozim!

Uch kishilik bir hayʻat tomonindan tuzilgon “til saboqligʻi” maktablarimizga muvofiq darslik boʻlsada qurslarimiz uchun poydosi ozdir.

Shuning uchun yuqorida aytilganacha, qurslarimizning butun soʻroqlarigʻa javob bermak bir til darsligiga, imlo, sharq nav qoidalarining eng muhimlarin oʻz ichiga olgʻon bir qoida kitobiga extiyoj bordir.

Bu kitob ana shu extiyojni bir oz boʻlsada oʻtash, til darslarindan boʻlgʻon shu kamchiliklarni mumkin qadar toʻldirish niyati bilan yozilgʻon bir qoida qitobi, “til saboqligʻi”ning qurslarimizgʻa muvofiqroq ravishda qisqortilib tuzilgon bir shakldir.

Bu kitobning tuzilishinda, albatta kamchiliklar yoʻq emas, bordir. Bunga xolisona bir koʻz bilan qorob kamchiliklarin toʻldurush yoʻlida butun tilchi va muallim orqodoshlarning koʻmak berishlarin oʻtunamiz.

Sh.Z. (ش.ز.)

Tovush ham harf.

Biz. Til. Kel. Turt. Tutun. Kapalak. Tong otdi. Qoʻyosh chiqdi. Biz maktabga ketdik.

Qoida:

1 § har bir soʻz aytilgon chogʻda, quloqqa turli ovozalar eshitiladir. Mana shu ovozalarning har birisiga “tovush” deyiladir.

2 § har bir tovushning qogʻozgʻa yoki boshqa bir narsaga yozilgʻon suratiga “xarf” deb aytiladir.

3 § bizning xozirda ishlaydirgon va yozadirgʻon xarflarimiz 30 boʻlub shulardir:

د. ب. پ. ت. ج. چ. خ. د. ر. ز. س. ش. غ. ف. ق. گ. ڭ. ل. م. ن. و. ي. ه. ا. ه. و. ئ. ي. ی.

4 § “aziz, hakim” kabi arabcha ba’zi bir soʻzlar uchun “ع,ح” harflari ishlatiladi. Bu harflarni ham qoʻshsoq, butun xarflarimiz 32 xarf boʻladi.

Yopishiq ham uzoq harflar

Bahor keldi. Gullar ochildi. Bulbullar sayradi.

Qoida:

5 § har ikki yogʻdan boshqa harflarga qoʻshib yozish mumkin boʻlgʻon xarflar “yopishiq harf” otolodirlor: “keldi” soʻzidagi “e” harfi oʻzidan avvalgi “k” harfiga oʻzindan soʻnggi “l” harfiga qoʻshulgʻondir. “L” harfi ham shunga oʻxshash oʻzindan avvalgi “e” ga, tubandan soʻnggi “d” ga qoʻshulgʻondir. Shu soʻzdagi “k, i” harflari ham har ikki yoqdan boshqa harflarga qoʻshila oladirlor. Demak, “k.e.l.i” harflari yopishiq xarflardir.

6 § oʻzindan soʻnggi harflarga qoʻshib yozish mumkin boʻlmagʻon harflar “uziq harf” ataladi: “gullar ochildi” soʻzlaridagi “u, a, r, o, d” harflari oʻzlaridan avval kelgan harflarga qoʻshulsalar ham, soʻnggi harflarga qoʻshilmagʻonlar. Ularni oʻzlaridan soʻnggi harflarga qoʻshib yozish hech vaqt mumkin emasdir. Shuning uchun bu harflar uziq harflardan sonolodirlar.

7 § yopishuq harflar 24 boʻlub shulardir:

z. b. p. t. j. ch. x. h. s. sh. ayn. gʻayn. f. q. k. g. ng. l. m. n. ye. i. y.

8 § uzoq harflar sakiz boʻlub shulardir: d. r. z. oʻ. v. u. a.

Tovush ham choʻzgʻi harflar

Bil. Til. Terak. Oʻqudi. Bilindi. Gap.

Qoida.

9 § tovush yolgʻiz oʻzidangina chiqodirgʻon harflar “tovush harfi” deb ataladi. Tovush harflari 26 boʻlub shulardir: a.b.p.t.ch.j.x.h.d.r.z.s.sh.ayn.gʻayn.f.q.k.g.ng.l.m.n.oʻ.y.

10 § tovush yolgʻuz oʻzindan chiqmosdan boshqa harflarga qoʻshulgʻodagʻina chiqodirgʻon ham boshqa harflarning choʻzilmogʻigʻa sabab boʻladirgʻon harflarni “”choʻzgʻi harf derlar.

11 § choʻzgʻi harf 6 boʻlub shulardir:

1-yoʻgʻon ust (alif): bozor, non, jon, olma.

2- ingichka ust (a) kapalak, gap, gajak.

3-toʻla oʻtru (oʻ) boʻr, koʻz, qoʻsh, qoʻy

4-qisqa oʻtru (u) bur, kuz, qush, quy

5-toʻla ost (e, y) kel, y yirtiq

6-qisqa ost (i) bilindi, bilimi, bitirildi.

1-yumush:

Uzoq, yopishiq, tovush ham choʻzgʻi harflari

Topish uchun.

Bilim yorug‘lar sochdi, ko‘zlarimizni ochdi. Bu holimizni ko‘rgach, bizni sevmagan qochdi. (Fitrat) Kulib qoroma bizga, qizil yuzlik shoptoli! Kuladirgon emasku bog‘chalarining axvoli! (Cho‘lpon) Tong otdi, jahon zulmati bitdi; so‘nggi kecha mung dard bilan tutdi. Har yon yugurush fursati bitdi, o‘ng so‘lni hayot to‘lquni tutdi. (Botu) Qori bilganni pari bilmas. Qozong‘a yorosh qopqog‘i. Ikki yarim bir butun. Ko‘r tutg‘onin qo‘ymas, kar eshitganin. (xalq maqollari)

So‘z

O‘zbek. Turkiston. O‘yg‘ondi. Qo‘zg‘oldi.

Qoida:

12 § bir necha xarflar bir yerga yig‘ilib bir ma‘no bildirsa “so‘z” deb ataladir.

“O‘zbek” bir so‘zdir, chunki “o‘, z, b, ye, k” xarflari yig‘ilib bir ma‘no bildiradir.

Bir so‘zning yozilishi

Oybek keldi. Eltoy bildi.

Qoida:

13 § harflari yopishuq bo‘lg‘on bir so‘zni har choq bo‘lmasdan yozish kerakdir. “Oybek keldi, Eltoy bildi” so‘zlarini “Oybek, keldi” suratda yozish yonglishdir.

14 § ikki so‘zni bir-biriga qo‘shib yozish ham yaramaydir. “Vali” bir so‘z “keldi” boshqa bir so‘z, mana shu ikki so‘zni bir-biriga qo‘shib “Valikeldi” suvratda yozish juda yonglishdir.

Qo‘shma so‘zlarning yozilishlari:

Toshkand. Oybolta. Karimjon. Mingboshi.

Qoida:

15 § ikki so‘z qo‘shulib bir kishi yoki bir narsaning otin bildirsa, har choq bir biriga qo‘shulib yoziladir. Bularni ayirib “oy bolta”, “Karim jon” “Tosh kand” suvratinda yozish yonglishdir.

Bo‘g‘im (hijo)

Bil-di, to‘-qu-di. Yi-g‘ish-ti-ril-di.

Qoida:

14 § og‘zimizdan chiqqon har bir so‘z bir yoki bir necha bo‘g‘img‘a bo‘linib chiqodir. Mana shu bo‘lingon bug‘imi “so‘z bo‘g‘imi” yoki qisqochocha “bo‘g‘im” deb ataladir. Bir so‘z necha bo‘g‘img‘a bo‘linib aytilsa, shuncha bug‘imli so‘z deb ataladir: “keldi” ikki bo‘g‘imli so‘zdir, chunki ikki bo‘g‘img‘a bo‘linadir. “Ey, non, jon” so‘zlari bir bo‘g‘imli. “O‘qudi, yozdirdi” so‘zlari to‘rt bo‘g‘imli so‘zlardir.

17 § bo‘g‘imlar shu ravishcha tuziladirlar.

1) Bir cho‘zg‘i va bir tovush xarfından: be-da-na, ti-la-di

- 2) Bir cho‘zg‘i va ikki tovush xarfindan: “bur. Oy-bek”
- 3) Bir cho‘zg‘i va uch tovush harfindan: “to‘rt, turk, quruq”
- 4) Ikki tovush xarfindan: “til, sin, bil-dir”
- 5) Uch tovush xarfindan: “tinch, sinch”

2-yumush

Bo‘g‘imlarning qandoy yasolg‘onliqlarin tekshirish uchun.

Bil. Chiq. Sindir. Eshit. Qirq. O‘n. Qizg‘onch. Otmish. Tur. Kapalak. Uchoq. Kitob. Daftar. Maktab. Yashasun sho‘rolar hukumati. Bitsin zolim dushmanlar. O‘zbek tili o‘yg‘ondi. Turkiston go‘zal vatanimizdir.

Bo‘g‘im turlari

1) ochiq bo‘g‘im.

Bedona. Ota. O‘qu. Dedi. Meva.

Qoida:

18 § bo‘g‘imning so‘nggi cho‘zig‘i harf bilan bitsa, shu bo‘g‘im “ochiq bo‘g‘im” ataladir. “bedona” so‘zining har bir bo‘g‘imi ochiq bo‘g‘imdir.

2) daftar. Maktab. Yur. Qoldirg‘och. Chirchiq.

Qoida:

19 § bo‘g‘imning so‘nggi harfitovush harfi bo‘lsa, shu bo‘g‘im “yopiq bo‘g‘im” ataladir. “Daftar” so‘zining har bir bo‘g‘imi yopiq bo‘g‘imdir.

Eslatma:

1) bir harfdan bo‘g‘im tuzilmaydir. “bilak, tilak” kabi so‘zlarning birinchi bo‘g‘imlarindag‘i “b,t” xarflaridan so‘ng qisqa ost borlig‘i o‘qulmasin.

2) “qil, bil, til” kabi yopiq bo‘g‘imlarda birinchi xarf bilan ikkinchi xarf orasida qisqa ost eshitilsa ham yozilmaydir.

3) cho‘zg‘i harflari “z” harfi bilan qo‘shilib yozilg‘onlari uchun, “it, is, iz ” kabi so‘zlarda “z” dan oldin so‘ng qisqa ost “z” bo‘lmog‘i zarurdir.

4) yozib turg‘on choqda yo‘l to‘lib, so‘zning bir bo‘lagin ikkinchi bo‘lakka ko‘chirish to‘g‘ri kelib qolsa, butun bo‘g‘imni ko‘chirish kerakdir. Ham birinchi yo‘lda qolg‘on bo‘g‘im so‘nggida chiziq (-) yoziladir. “Oldi” so‘zin ikki bo‘lib ko‘chirish to‘g‘ri kelib qolsa, “ol” bir yo‘lda qoldirilib, “di” ikkinchi yo‘lga ko‘chiriladir. "Oldi" “i” kabi ko‘chirish yanglishdir.

Qoida:

20 § ikki bo‘g‘imli tub so‘zning birinchi bo‘g‘imda (u) va (o‘) xarfi kelganda, ikkinchi bo‘g‘imda ostg‘a, yoki to‘g‘riga moyil cho‘zilib aytilsa (o‘) harfi yoziladir: “o‘g‘ul” tub so‘zdir. Birinchi bug‘imda o‘tur kelgani uchun, ikkinchi bo‘lakda ham o‘tur yozilg‘ondir. Uni “o‘g‘il” suvratinda yozish yoromoydir.

Qoida:

21§ yasama so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘imlarida (o‘) yozilmaydir: “tursin, turg‘in, turub, turq” so‘zlari yasama so‘zlardir. Chunki bular tub so‘z bo‘lg‘on “tur” dan

yasolgʻondirlar. Shuning uchun bularning ikkinchi boʻgʻimlarida (oʻ) yozilmaydir. “Tursun, turub, turgʻun, toʻroʻq” kabi yozmlq yanglishdir

Qoida:

22 § ikki boʻgʻimli soʻzning soʻngiga boshqa bir xarf yopishtirmoq bilan boʻgʻunni ikkinchi bugʻimning birinchi xarf soʻnggi xosil boʻlgʻon birinchi harfi soʻnggi hosil boʻlgʻon birinchi boʻgʻimgʻa qoʻshilib ketganda, (oʻ) harfi tushirilib qoldiriladir. “Oʻgʻul” ikki boʻgʻimli soʻzdir. Soʻngiga (m) harfini qoʻshsoq , ikkinchi boʻgʻimdagi (u) harfi tushub qoladir. “Oʻgʻlim” ravishda yoziladir. “U”ni tushirmasdan “oʻgʻulim” suvratinda yozish yanglishdir.

Qoida:

23 § birinchi boʻgʻimda ust choʻzigʻisi kelgan soʻzlarning ikkinchi boʻgʻimda (u) yozilmaydir. Bularni “xotun, otun sochuq” kabi yozish yanglishdir. “Qoygʻi, tamaki” kabi birinchi boʻgʻimda ust choʻzgʻisi boʻlib ikkinchi boʻgʻimi ochiq boʻgʻim boʻlib kelgan soʻzlarda ham “u” yozilmaydir.

T – d

Qoida:

23 § “b, p, t, ch, k, q, f” harflarindan soʻng (d) xarfi (t) eshitilsa ham, (d) yoziladir. “Otdi, qochdi” soʻzlarini “otti, qochdi” suvratida yozish yanglishdir.

Sh, z, s.

Qoida:

25 § turgʻunli (sh-z) xarflarindan soʻng (s) kelsa, (sh, z) xarflari (s) kabi yetishtiriladir. Ammo yozishdan asli boʻlgʻon (sh) yoki (z) xarflarin yozish kerakdir.

M-n

Oʻn bir. Minmadi. Oʻn par. Yonmadi.

Qoida:

26 § turgʻinli (n) harfi (b, m, p) xarflaridan burun kelsa, (m) eshitiladir, ammo aslicha (n) yozish kerakdir.

V-f

Quvnoq, toʻquv, kuvrak, quvladi, suv

Qoida:

25 § oʻtruga uzunrak choʻzish kerak boʻlgʻon soʻzlarda qisqa oʻtru (oʻ) dan soʻngra tovush xarfi (v) yozish kerakdir. Buni yozmay qoldirilsa, maʼno oʻzgara oladir. (kuvrak) soʻzidagi (v) tushurilib qoldirilsa, (kurak) boʻladirki har ikisining maʼnosi boshqa-boshqadir.

Y

Siyjadi. Siypadi. Ziyrak. Kiydi. Qiynoq.

Qoida:

26 § ostg'a uzunrak cho'zish kerak bo'lg'on so'zlarda qisqa ost (i)dan so'ng, tovush xarfi y yoziladir. Buni yozmoy qoldirilsa, ma'noning o'zgarishi mumkindir. (siyladi) so'zidagi (y) tushirilib qoldirilsa "siladi" bo'ladir-ki har ikkisi boshqa-boshqa ma'nodag'i so'zlardir.

Eslatamiz;

Shunday ostg'a cho'zilib so'ngida (y) xarfi eshitarlik so'zlarda yolg'iz (y) tovush xarfini yozmoq ham mumkindir: "siylamak ziyrak" kabi.

Q-g'

O'roq-o'rog'i, tuqmoq-tumog'i, tayoq-tayog'i-tayog'im.

Qoida:

29§ ikki yoki ikkidan ortiq bug'imli so'zlarning so'nggida kelgan turg'unli (q) dan so'ngra (i) cho'zg'isi tutoshdirilsa, yoki (q) xarfini qisqa ost cho'zg'i xarfiga moyil qilinib boshqa biror xarf yopishtirilib aytilsa, (q) xarfi (g') xarfiga aylonodir. Shunday yozmoq kerakdir.

G'-q

Oyog' – g'o = oyoqqa. Chiq – g'on = chiqqon. Choq – g'oy = choqqoy.

Qoida:

30 § so'nggida (q) xarfi bo'lg'on so'zga "g'o, g'on, g'oy" kabi boshda (g') xarfi bo'lg'on bilgilar qo'shilsa, so'nggi (g') xarfi (q) xarfiga aylanadir. Yozishda shunday olishtirib yozish kerakdir.

Bog' – g'o = boqqo, sog' – g'on – soqqon, sog' – g'oy – soqqoy.

Qoida:

31§ so'nggida (g') xarfi bo'lg'on so'zga "g'o, g'on, g'oy" kabi boshda (g') xarfi bo'lg'on bilgilar qo'shilsa, har ikki (g') ham (q) xarfiga oylanadir. Yozishda shunday olishtirib yozish kerak.

K-g.

Ko'ylak – ko'ylagi – ko'ylagim. Kurak – kuragi – kuragim.

Qoida:

32 § ikki, yoki ikkidan ortiq bug'imli so'zlarning so'nggida kelgan turg'unli (k) ga (i) cho'zg'isi, yoki (k) xarfini ostg'a moyil qilinib biror xarf yopishtirilsa (k) harfi (g) xarfiga aylanadir. Yozishda shunday yozish kerakdir.

G-k.

Terak – ga – terakka. Chelak – ga, gacha – chelakka, chelakkacha. Tik – gan, gay, go'chi – tikkan, tikkay tikkuchi.

Qoida:

33 § so'nggida (k) bo'lg'on so'zga "ga, gacha, gay, go'chi" kabi boshda (g) xarfi bo'lg'on bilgilar qo'shilsa, so'nggi (g) xarfi (k) xarfiga aylanadir. Yozishda shunday yozish kerakdir.

Eslatma:

“to‘q-to‘qi, oq-oqi, suk-suki, tik-tiki” kabi bir bo‘g‘imli so‘zlarda “q, k,” xarflari o‘zgarmaydir.

Yo‘g‘on va ingichka so‘zlar.

1) Yo‘g‘on so‘zlar.

Bozor. Quloq. Yaxshiliq. G‘avg‘o. Jon. Boliq. Qorg‘o qorg‘oning ko‘zin cho‘qumas. O‘roqda yo‘q, moshoqda xirmonda xozir.

Qoida:

34 § bir so‘zda “q, g‘, h, alif” xarflaridan biri bo‘lsa, u so‘z yo‘g‘on so‘z otolodir.

2) Ingichka so‘zlar

Kapalak, o‘rdak, berdi, yugurdi, oq terak, ko‘k terak. Bizdan sizga kim kerak?

35 § bir so‘zda “k, g, a, y” xarflaridan biri bo‘lsa, bu so‘z ingichka so‘z otolodir.

Eslatma:

1) Yo‘g‘on so‘zlardagi “g,k,a,y” xarflaridan birini yozish durust emasdir: “choqirsa, yozmak, qazi” suvratinda yozish yonglishdir.

2) ingichka so‘zlarda “q, g‘, h, alif” xarflaridan birini yozmoq durust emasdir: “kelsa, yugurmak, ko‘ragon” so‘zlarini “kelso, yugurmoq, ko‘rag‘on” suvratinda yozish yangilshdir.

Sin-siniq, o‘l-o‘lik, tin-tiniq, to‘sha-to‘shak.

Qoida:

36§ yo‘g‘onliq va ingichkaligi bilgili bo‘lmag‘on so‘zlarni qanday yozish uchun shu so‘zdan boshqacharoq so‘zlarni yasob qarash kerakdir. Shunda yo‘g‘on xarflardan kelsa, u so‘zning barcha turlari ham yo‘g‘ondan ingiichka xarflardan kelsa, ingichkadan sonolodir. Har ikkovi ham bo‘lmasa, ingichkalar kabi yoziladir.

Toshkand, Karimjon, Eshmatboy

Qoida:

37§ qo‘shma so‘zlardagi birinchi so‘zning yo‘g‘onliq yoki ingichkaligi ikinchisiga tasir qilmaydir.

Tovoq, tog‘ora, savdo, qaror.

Qoida:

38 § o‘zlashib ketgan chet til so‘zlari tilimizning yo‘g‘onliq, ingichkaligiga bo‘ysunadirlar.

Bola, qalam, kambag‘al, gado.

Qoida: 39 § paqat “bolo, qalam” kabi chet til so‘zlarini yo‘g‘onliq, ingichkalikka bo‘ysundirganda, quloqqa boshqacha eshitilgani uchun, tilimizning yo‘g‘onliq, ingichkalikka bo‘ysundirilmay, eshitilganча yoziladir.

So‘z turlari.

Axmad, qoro, yaxshi, bir, ikki, man, san, keldi, kelsa, albatta, extimol.

Qoida:

30 § soʻzlar oʻzlarining bergan maʼnolarigʻa qarab olti turli boʻladirlar:

1) ism – kishilar, narsalarning otlarinbildirgan soʻzlar “ism” deb ataladirlar: “Toshkand, Turkiston, aql, ot, sigir, qalam, daftar, qogʻoz” kabi.

2) sufat – kishilar, narsalarning xollarin, ranglarin bildirgan soʻzlar “sufat” deb ataladir. “Qizil, oq, yaxshi” kabi. “Qizil qalam, yaxshi kishi” desak, “qizil” soʻzi qalamning rangini “yaxshi” esa kishining xolini (qandoyligʻini) bildiradir. Shuning uchun bular “sufat” dirlar.

3) son – bir narsaning sonogʻini, sirasini, boʻlimini, chomosini, toʻdasini bildirgan soʻzlar “son” deb ataladirlar. “bir, ikki, oʻn besh, bir yuz qirq, birinchi, ikkinchi, yuzunchi, birtadan, oltitadan, ikkovlon, oltovlon, ikalasi, toʻrtalasi, minglarcha, miliardlarcha, mingtacha, qirqtacha, birlab, oʻnlab, qirqlab” kabi.

4) olmosh – biror soʻz oʻrniga olmoshinib yuradirgon, yoki bir narsani koʻrsatmak, soʻramoq, belgilamak uchun qoʻllanadirgʻon soʻzlar “olmosh” ataladir: “man, san, ul, biz, siz, bu, shu, ushbu, allakim, allanima, necha, qoysi, har kim, har nima, butun” kabi.

5) feʼl – bir kishi, bir narsaning ishini, xolinibildirgan soʻzlar soʻzlar “feʼl” ataladir: “keldi, kelsa, kelgan, kelmas. Oʻqudi, oʻqugʻon, oʻqur, oʻqugʻoy” kabi “keldi” bir xolni, “oʻqudi” bir ishni bildiradir.

6) koʻmakchi soʻzikki gapni bir-biriga qoʻshish, maʼnolarin kengaytirish va bir xis, toʻygʻuni bildirish uchun qoʻllonadurgʻon soʻzlar “koʻmakchi soʻz” otolodir: “albatta, extimol, voh, ham, balki, shoyad, oh, oʻq, attang” kabi.

Bilgilar.

Ning, ni, da, do, ka, ga, qo, gʻo, gacha, mo, ma, li, siz, dagi, miz, ingiz, m, i, lik, liq, chan, chon.

Qoida:

41 § oʻzlari yolgʻuz aytilgonda hech maʼno bermaydirgon ishorotlar “bilgi” otolodirlar. Bu bilgilardan: lar, dan, da, gʻo, qo, gʻocho, mo, dogʻi, liq, or, so, q, qach, gʻach, la, gʻi kabi bilgilar yoʻgʻon soʻzlarga “dan, da, ga, ka, gacha, ma, dagi, lik, k, ar, sa, la, gi” kabi bilgilar ingichka soʻzlarga qoʻshuladirlar: “qish – dan – qishdan, koʻcha- dan – koʻchadan” kabi “ning, ni, bilan, miz, ingiz, i, m, li, siz, niki” kabi bilgilar esa har ikkisiga ham qoʻshuladirlar: “aql-aqlning, koʻcha-koʻchaning” kabi.

Eslatma:

Bilgilar soʻnggi yopishiq harf bilan bitkan soʻzlarning keyiniga har choq qoʻshulib yoziladirlar: “maktab – maktabning maktabsiz” kabi.

Ning

Ahmadning kitobi. Valining daftari. Ko‘chaning loyi. Yozning issiq kunlari. O‘zbekistonning poytaxti. Turkistonning havosi.

Qoida:

42 § “ning” bilgisi egalik, maxsusliqni, bir narsaning ikkinchi bir narsaga tegishli ekanini bildiradir: “Axmadning kitobi. Oybekning she’ri” kabi-ki kitob axmadga maxsus. She’rning egasi Oybek demakdir.

43 § ba’zi choqda bu “ning” bilgisi tushib qoladir: “maktab mudiri, kitob jilti” kabi aslida “maktabning mudiri, kitobning jilti” dir.

Ni

Valini ko‘rdim. Tursinni o‘qutdim. Daftirimni yo‘qotdim. Yurtimizni saqlayliq! Boshqa tushkanini ko‘z ko‘rar.

Qoida:

44 § “ko‘rdim” “deyilsa” kimni ko‘rdik? Degan so‘roq beriladir. Bu so‘roqqa “Axmadni” deb javob berilsa, “ko‘rmak” ishining Axmadga kelib tushganligi anglashiladir. Mana shunday ishning borib tushgon narsasini bildirgan so‘zning ketiga “i” qo‘shiladir.

Tursinni (kimni?) ko‘rdim. Axmadni (kimni?) o‘qutdim. Kitobni (nimani?) oldim. Qog‘ozni (nimani?) yirtdim.

45 § bu “bilgisi” ba’zi choqda tushib qoladir: “kitobni oldim – kitob oldim” kabi.

Gap va uning bo‘laklari

Man o‘qudim. Boshqa tushganini ko‘z ko‘rar. Quruq so‘z quloqqa yoqmas.

Qoida:

46 § bir necha so‘zlar bir yerga yig‘ilib to‘la fikr anglatsa, unga “gap” deyiladir: “man bu kun o‘qudim” kabi.

47 § gapdagi har bir so‘z shu gapning bir bo‘lagi hisoblanadir: “biz bugun maktabga ketdik” bir gap “biz, bugun, maktabga, ketdik” so‘zlarining har biri shu gapning bir bo‘lagidir.

48 § gap kim, nima to‘g‘risida so‘zlangon bo‘lsa, shu kishi, shu narsani bildirgan so‘z “ega” deb ataladir; “Axmad o‘qudi”, “quyosh chiqdi”, desak biz gapni “Axmad, quyosh” to‘g‘risida so‘zlagan bo‘lamiz. Shuning uchun “Axmad, quyosh” egadir. Ega kim, nima degan so‘roqqa javob bo‘ladir.

49 § ega to‘g‘risida aytilgan so‘z “kesim” deb ataladir. “Quyosh chiqdi” gapida “quyosh” egadir. Mana shu ega to‘g‘risida “chiqdi” deymiz. Demak chiqdi so‘zi kesim bo‘ladir. Kesim nima qildi, nima qilar, qanday? Kabi so‘roqlarga javob bo‘ladir. “Axmad (nima qildi?) o‘qudi. Ot (qandoy) yaxshi” kabi

50 § ega bilan kesim gapning bosh bo‘laklaridir va bulardan boshqa so‘zlar “ergash bo‘laklar” hisoblanadilar. “man bugun to‘rt dars o‘qudim” bir gapdir. Bu gapda “man, o‘qudim” bosh bo‘laklar (man – ega, o‘qudim - kesim) “bukun, to‘rt, dars” so‘zlari esa ergash bo‘laklardir.

51 § ega bilan kesim soʻz turlarining hammasidan ham yasolodirlar. “Axmad oʻqudi” gapida ega ismidan, kesim feʻldan “ul yaxshidir” gapida esa ega olmoshdan, kesim sufatdan yasolmishdir.

52 § ergash boʻlaklar ishning payt, sabab, ravish, oʻrun, sufat, sonini va ishning tushgan, koʻchgan, joʻnagan oʻrnini bildirib, kimning, qanaqa, necha, nechanchi, “qachon, qachondan beri, nima uchun, kim uchun, nimaga, kimga, qanday, kimda, nimada, qaerda, kimni nimani, qaerni, kimdan, nimadan, kim bilan, nima bilan?” kabi soʻroqlarga javob boʻladir. “Man kecha daladan keldim” gapidagi ergash boʻlaklardan “kecha” paytini bildirib “qachon” degan soʻroqqa “daladan” koʻchadan oʻrunni bildirib “qaerdan” degan soʻroqqa javob boʻladir.

Gap turlari

San turdingmi? Bolalar oʻqungiz! Man oʻqudim.

Qoida:

53 § gaplar soʻzlovchining aytishga tilagan maʼno va mavxumiga qarab uch turli boʻladilar:

1) Soʻroq gap

San qachon kelding?

Qoida:

54 § Soʻroq anglashilgʻon gaplar “soʻroq gap” deb ataladirlar. Soʻroq gaplarning soʻnggida har choq soʻroq turushi (?) qoʻyiladir.

2) Yashasin shoʻrolar xukumati! Oʻzbek oʻygʻon!

Qoida:

55 § undov (xitob) anglashilgʻon gaplar “undov” gap deb ataladir.

Undov gaplarning soʻnggida harchoq undov turushi qoʻyiladir.

3) Man oʻqudim. San maktabga kelding. Ul xat yozdi.

*Shorasul Zunun. Toshkand, 1925. 45 bet.
Beruniy nomidagi qoʻlyozmalar instituti. Tartib raqami 16490.*